


Forish tuman Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati



**5-iyun – Butunjahon atrof-muhitni muhofaza
qilish kuniga atab “Tabiat-bu hayot” nomli bibliografik
qo`llanma**

Tabiat-bu hayot[Matn]:Forish tuman axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati; tuzuvchi N. Artikova.-Forish: 2025.-16 b.

Mazkur **“Tabiat -bu hayot”** nomli bibliografik qoʻllanma, Tabiat insoniyatga cheksiz va qimmatbaho boyliklarni taqdim etishi. Havo, suv va tuproq - bular hayotning uch asosiy manbasi hisoblanadi, chunki ularsiz tiriklikni tasavvur qilib boʻlmaydi. Havo insonning nafas olish uchun zarur, daraxtlar esa uni tozalab, yangi kislorod bilan boyitadi. Suv esa hayotning asosi boʻlib, ichimlik suvi sifatida insonlar uchun, sugʻorish suvi sifatida esa dehqonchilik uchun muhim ahamiyatga ega.

Ammo insonning tabiatga nisbatan ehtiyotsizligi va beparvoligi koʻplab ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Buning natijasida daryolar ifloslanadi, oʻrmonlar kesiladi, yerdagi resurslar kamayadi, va atmosferaga zararli gazlar chiqariladi. Bu faqat bugungi kunimizni emas, balki kelajak avlodlarning hayotini ham tahdid ostiga qoʻyishi haqida maʼlumot beradi.

«O‘zbekiston – 2030» Strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish dasturi qabul qilindi



Prezidentning 30.01.2025 yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini **“Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot”** yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi.

-Hujjat bilan «Atrof-muhit muhofazasi va "yashil iqtisodiyot" yili»da mamlakatni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yondashuvlari belgilandi:

-mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirish darajasini oshirish, yashash uchun ekologik qulay va farovon muhitni shakllantirish;

-aholi salomatligini mustahkamlash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratish;

-tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash;

-o‘simlik va hayvonot dunyosini kelgusi avlod uchun muhofaza qilish, ko‘paytirish va saqlash, bioxilma-xillikni asrash;

-"yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirish;

-respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, jumladan, DXSh asosida yirik "yashil elektr stansiyalari"ni qurish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalar tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish;

-iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energiya tejavchi texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni qisqartirish;

-ekologik barqarorlikka qaratilgan hududlararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni ta‘minlash.

2025 yilda quyidagilarni ta'minlash ko'zda tutilmoqda:

-Parij bitimi talablaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonning uglerod neytralligiga erishish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish;

-iqlim o'zgarishiga moslashish va "yashil texnologiyalar" transferini hisobga olgan holda keyingi 5 yilda global miqyosda issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirishga mamlakatimizning milliy darajada belgilangan hissasini (NDC) e'lon qilish;

-metan chiqindilarini qisqartirish bo'yicha majburiyat doirasida tabiiy gaz, chiqindilar bilan ishlash va chorvachilik kabi sohalarda metan chiqindilarining bazaviy holatini aniqlash;

-umumiy quvvati 4,5 GVt bo'lgan yirik quyosh va shamol stansiyalarini, 785 megavatt quvvatga ega quyosh panellarini o'rnatish, 225 MVt quvvatga ega gidroelektr stansiyalarini qurish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 26 foizgacha va generatsiya quvvatlarining umumiy tuzilmasida 40 foizgacha yetkazish;

-qurilayotgan yangi bino, inshoot va turar joylarning energiya samaradorligidan kelib chiqqan holda "Yashil bino" sertifikatini joriy etish.

Tabiat-bu hayot



Tabiat — odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman — bu dunyo, odam, koinot; mikromakromega dunyolar; Jonsiz. va jonli narsalar bor. Tor ma'noda — tabiat fanlari o'rganadigan obyekt. Tabiat odamga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan qonuniyatga bo'ysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini o'zgartira olmaydi, faqat qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qismlarini o'zlashtirishi mumkin. Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (mas., dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqa esa tabiatning ba'zi jihatlarini o'zgartiradi. Odam tomonidan, ya'ni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda „ikkinchi

tabiat“ deyiladi. Masalan, vodoroddan urangacha bo‘lgan 92 ta kimyoviy element tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sun‘iydir. Barcha sun‘iy sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro energiyalari „ikkinchi tabiat“ga kiradi.

Tabiat atamasi keng ma’noda fizik, material olamni bildiradi. Kundalik turmushda „tabiat“ so‘zi ostida odam ta’siri ostida ko‘p bo‘lmagan atrof-muhit va undagi hayot (yovvoyi tabiat) nazarda tutiladi. Birinchi holda tabiatni umuman fan, ikkinchi holda esa tabiatshunoslik o‘rganadi. Bunda tabiat subatomdan galaktik miqyoslarga bo‘lib ko‘riladi.

Odamning tabiatga munosabati tarixda o‘zgarib va rivojlanib bordi. Antik falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in’ikosi (Platon), uyg‘un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta’limotlarda tabiat ruhiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb xisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi deb tushunilgan. Uyg‘onish davrida tabiatga hamma tabiiy uyg‘unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida qaraldi. Yangi davrda tabiatga bo‘lgan munosabat tabiatning ilmiy o‘rganish ob’jektiga aylanishida katta rol o‘ynadi.

Tabiat ob’yekti fazo va vaqtda mavjud modda, materiyadir. Ular cheksiz ma’lum narsalarning (elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq, suv, havo, jonsiz va jonli mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar) majmuidan iboratdir. Bir vaqtlar (fanning so‘nggi ma’lumotlari bo‘yicha bundan 20 milliard yil avval) bu jismlar boshqa ko‘rinishda bo‘lgan. Bo‘lajak milliard yillarda u yana o‘zgarib boradi. Tabiat odamning, jamiyatning vatani. Odamning hayoti tabiatning, biosferaning uyg‘un sharoitiga bog‘liq. Bu sharoit salbiy tomonga o‘zgartirilsa, odamning normal yashashiga putur yetkaziladi, ekologik muammolar paydo bo‘ladi. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto‘g‘ri foydalanish — biosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to‘g‘ri va oqilona munosabatda bo‘lish lozim (qarang: Tabiatni muhofaza qilish). Insonning tabiatga bunday munosabatda bo‘lishida fan asosiy omil bo‘lib kelmoqda. Yer va koinotda insonning faoliyati faollashmoqda. Koinotning uzoq-uzoq joylari (mas., metagalaktikalari)da, t yuz berayotgan hodisalarni kengroq va chuqurroq bilish tabiat haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Omonulpa Fayzullayev.vatanimiz musaffo bo‘lsin.

Tabiatning hayotimizdagi ahamiyati.

Tabiat inson hayotining asosi, uning eng sodiq va mehribon do‘stidir. U nafaqat hayot uchun zarur manbalar bilan ta’minlaydi, balki ruhiy osoyishtalik va estetik zavq ham bag‘ishlaydi. Tabiat insonning ijodkorlik ilhomini uyg‘otadi va unga tinchlanish imkonini beradi. Tabiat bizga nafas olish uchun toza havo, hayot uchun zarur suv va oziq-ovqat beradi. Masalan, daraxtlar orqali kislorod olamiz, daryolar esa ichimlik suvi manbai bo‘lib xizmat qiladi, dalalarda yetishtirilgan hosillar esa

bizning oziq-ovqat ehtiyojlarimizni qoplaydi. Undagi go'zallik va sokinlik inson qalbini yayratadi, unga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Masalan, bahorda yashillik bilan qoplangan dala-dashtlarda sayr qilgan inson o'zini xuddi yangi kuch va energiya bilan to'lgandek his qiladi. Shuning uchun tabiatni insonning eng yaqin do'sti deb atashimiz mumkin.

Tabiatning bizga bergan boyliklari.

Tabiat insoniyatga cheksiz va qimmatbaho boyliklarni taqdim etadi. Havo, suv va tuproq - bular hayotning uch asosiy manbasi hisoblanadi, chunki ularsiz tiriklikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Havo insonning nafas olish uchun zarur, daraxtlar esa uni tozalab, yangi kislorod bilan boyitadi. Suv esa hayotning asosi bo'lib, ichimlik suvi sifatida insonlar uchun, sug'orish suvi sifatida esa dehqonchilik uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, suv baliqchilik, elektr energiyasi ishlab chiqarish va boshqa sohalarda foydalaniladi.

Tabiat bizga o'zining o'simliklari va hayvonot dunyosi orqali ham ulkan ne'matlar beradi. O'simliklar dalalarda yetishtirilgan hosil ko'rinishida oziq-ovqat, dorivor o'simliklar esa shifobaxsh vositalar sifatida xizmat qiladi. Hayvonot dunyosi esa insonlarni go'sht, sut, jun kabi foydali mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Masalan, asalari bizga asal beradi, qoramollar esa sut va go'sht mahsulotlarini taqdim etadi. Daraxtlar nafaqat havoni tozalaydi va estetik go'zallik baxsh etadi, balki insonlarga mazali mevalar, yog'och va soya taqdim etadi.

Suvda yashaydigan organizmlar, jumladan baliqlar va boshqa dengiz mahsulotlari esa insonlarning oziq-ovqat zanjirida muhim o'rin egallaydi. Tuproq esa dehqonchilik va bog'dorchilikning asosi bo'lib, ulkan hosillarni yetishtirish imkonini beradi. Tabiatning bu boyliklari nafaqat insonlarning ehtiyojlarini qondiradi, balki uning rivojlanishi va farovonligini ta'minlaydi. Shuning uchun tabiatning har bir ne'matini qadrlash va uni ehtiyot qilish bizning burchimizdir.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat

Tabiat va inson o'rtasidagi aloqalar juda chuqur va o'zaro bog'liqdir. Inson o'z hayoti davomida tabiatga ta'sir o'tkazadi va tabiatdan o'zining barcha ehtiyojlari uchun foydalanadi. Tabiatdagi resurslar, masalan, suv, havo, o'simliklar va hayvonlar inson hayoti uchun zarur bo'lib, uning yashash sharoitlarini ta'minlaydi. Inson o'zining faoliyatida tabiatni boshqarish va undan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishi kerak. Tabiat bilan uyg'un yashash, uning qonunlariga hurmat bilan yondashish insonning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ammo insonning tabiatga nisbatan ehtiyotsizligi va beparvoligi ko'plab ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Buning natijasida daryolar ifloslanadi, o'rmonlar kesiladi, yerdagi resurslar kamayadi, va atmosferaga zararli gazlar chiqariladi. Bu

faqat bugungi kunimizni emas, balki kelajak avlodlarning hayotini ham tahdid ostiga qo'yadi.

Tabiatning holatini yaxshilash, uning resurslarini samarali va barqaror foydalanish, yerni va suvlarga zarar yetkazmaslik, va boshqa ko'plab ekologik masalalar insoniyat uchun juda muhimdir. Shuning uchun har birimiz tabiatni asrash va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimiz kerak. Tabiatni sevish, unga e'tiborli bo'lish, va uni asrab-avaylash bizning asosiy vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak. Har bir kichik o'zgarish, har bir mas'uliyatli qadam tabiatga va insoniyatga katta foyda keltirishi mumkin.

Tabiatning go'zalligi va uni saqlash

Tabiatning go'zalligi inson ruhiyatiga beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Uning betakror manzaralari, tabiatdagi turli xil ranglar va tovushlar, hayvonlar va o'simliklar hayoti har bir kishini o'ziga jalb qiladi. Tog'lar va daryolar, o'rmonlar va dala kengliklari insonni tinchlantiradi, unga ichki huzur va farovonlik beradi. Tabiatning go'zalligi nafaqat ko'z bilan, balki qalb bilan ham seziladi. Bu go'zallik tabiatning ayniqsa salomat bo'lgan holatida o'z aksini topadi, chunki tabiatning barcha unsurlari bir-biri bilan uyg'un va muvozanatli ishlaydi.

Tabiatni saqlash, uning go'zalligini kelajak avlodlarga yetkazish, bizning jamiyat sifatidagi mas'uliyatimizdir. Afsuski, hozirgi kunda tabiatning go'zalligi va uning mavjudati katta xavf ostida turibdi. Iqlim o'zgarishi, ifloslanish va tabiiy resurslarning haddan tashqari ishlatilishi uning holatini yomonlashtirmoqda. Shuning uchun tabiatni saqlash bizning burchimizga aylanmoqda. Har bir inson kichik, ammo muhim o'zgarishlar qilishi mumkin: chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejash, ekologik mahsulotlarni iste'mol qilish, va eng muhimi, daraxtlar ekish.

Daraxtlar ekish, albatta, tabiatni asrashning eng samarali usullaridan biridir. Daraxtlar nafaqat havoni tozalaydi, balki yerning unumdorligini saqlaydi, hayvonlar uchun yashash joyi yaratadi va iqlimni barqarorlashtiradi. Shuningdek, suv manbalarini asrash ham juda muhimdir. Suv - hayotning asosidir, va uning ifloslanishi yoki isrofgarchilik bilan sarflanishi butun ekosistemaga zarar yetkazadi. Suvni tejash, tabiiy suv manbalarini himoya qilish, uning toza saqlanishiga yordam beradi.

Tabiatni asrab-avaylash, uni sevish nafaqat ekologik jihatdan, balki ma'naviy jihatdan ham muhimdir. Tabiat bilan uyg'un yashash insonning ruhiy holatini yaxshilaydi, unga hayotdan haqiqiy zavq olish imkonini beradi. Tabiatni saqlash - bu faqat resurslarni tejash emas, balki butun bir madaniyatni, barqarorlik va tinchlikni yaratishdir. Tabiatni asrash - bu, aslida, hayotni asrashdir. Biz tabiatni asrab, unga mehribonlik ko'rsatganimiz sayin, biz o'zimizni va kelajak avlodlarni hayotning go'zalligi bilan ta'minlaymiz.

Tabiat tushunchasi keng ma'nodagi falsafiy tushunchalardan biridir. Tabiat benihoyat xilma-xil shakl va ko'rinishlari bilan insonni qurshab turgan moddiy olam, butun mavjudotdan iboratdir, lekin "Tabiat" tushunchasini "Borliq" tushunchasi bilan aynanlashtirmaslik lozim. Borliq, tushunchasi mazmun jihatidan keng bo'lib ijtimoiy, ma'naviy borliqni ham o'z ichiga oladi. "Tabiat" tushunchasi anchayin tor ma'noda tabiatshunoslik fanlarining o'rganish ob'ekti sifatida ham tushuniladi. Tabiat fanlari tabiatdagi barcha narsa va hodisalarning mohiyati va ularda mavjud bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganadi. Bu fanlar ma'lumotlarini o'rganish bilan bizning tabiat haqidagi tasavvurlarimiz kengayib boradi.

Tabiat tushunchasi materiya tushunchasiga yaqin turadi. Demak, tabiat xilma-xil jismlardan tashkil topgan materiyadir. Ammo, odatda, tabiat tushunchasini muayyan bir chegarada, ya'ni inson va insoniyat mavjudligining tabiiy sharoitlari yig'indisi sifatida ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda, "Tabiat" tushunchasi inson va jamiyatning tabiatga nisbatan tarixiy jarayon davomi sifatida o'zgarib boradigan munosabati tizimidagi o'rni va rolini ifodalaydi. SHuning uchun bu tushuncha nafaqat tabiiy, balki inson tomonidan yaratilgan, uning mavjudligi moddiy shart-sharoitlari "ikkilamchi tabiati"ni ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Ma'lumki, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning doimiy ravishda amalga oshishi ijtimoiy ishlab chiqarishning tartibga solib turuvchi qonun bo'lib, busiz inson hayotining o'zi bo'lmaydi.

Insonning tabiatga munosabatini asosini uning faoliyati belgilaydi, chunki, bunday munosabat uchun materialni unga tabiatning o'zi beradi. SHunga ko'ra, tabiatga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, o'z o'rnida, insoniy faoliyatning xarakteri, yo'nalishi va ko'lamini ham o'zgarishiga olib keladi.

Jamiyat rivojlanishi, u bilan birgalikda inson aql-idrokining takomillashuvi, inchunin ilm-fan taraqqiysi tabiatga bo'lgan munosabat xarakterini ham o'zgartirib boradi. Bu narsa insonning tabiatga nisbatan ta'siri asta-sekin chuqurlashib, kengayib borishiga olib keldi. Insonning tabiatga munosabati masalasi tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turlicha namoyon bo'la boshlaydi. SHunga muvofiq tabiat haqidagi falsafiy tushuncha tarixan o'zgarib, rivojlanib borgan. Ibtidoiy odam uchun tabiat butunlay ilohiylashgan bo'lganligi bilan xarakterlidir. Mifologik tafakkur xali tabiat bilan insonni bir-biriga munosabatini to'g'ri belgilash uchun muayyan asos bo'la olmasdi. Tabiat haqidagi bilimlarning ortib borishi, unga nisbatan muayyan qarashlarning shakllanishiga olib kela boshlaydi. Bu esa falsafani mifologiyadan ajralib chiqishini ko'rsatadi. Antik tafakkurning paydo bo'lishi tabiatga nisbatan o'ziga xos munosabatni keltirib chiqardi. Bu davrda tabiat tushunchasi insonni mukammallikka erishishga intilishini ifodalay boshlaydi. Insonning tabiatdan bahramand bo'lishi va u bilan hamnafas bo'lish tomon harakati kuchayadi.

Tabiat (yunoncha “rhusiske”- vujudga kelgan, dunyoga kelmoq) «Tabiat» soʻzi narsalarning mohiyati hamma narsalarning yigʻindisi hamda insonni ifodalaydi. Inson oʻzining kelib chiqishi va yashashi nuqtai nazaridan tabiatning bir boʻlagidir. SHu maʼnoda tabiat, mazmuni jihatidan, bevosita hamma faoliyatning yigʻindisi hamma narsa va voqealarning umumiy bogʻlanishi, umuman borligʻidir. Tabiat tushunchasi ikki xil maʼnoda qoʻllaniladi. Keng maʼnoda butun borliq, olamning cheksiz xilma-xilligining aniq namoyon boʻlish sifatida bunda tabiat “borliq”, “voqelik”, “koinot”, “olam” tushunchalarining sinonimidir. Ularning hammasi butun borliq yigʻindisini, shu jumladan, insonni ham ifodalaydi. Tor maʼnoda esa tabiat insonning geografik muhitini anglatadi. Inson va tabiat oʻrtasidagi munosabat insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bogʻliq ravishda oʻzgarib turadi. Inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarni, uch xil yondashuv orqali ifodalash mumkin:

- 1) afsonaviy (mifologik) - insonni tabiatga qaramligi;
- 2) ilmiy-texnologik (insonning tabiat ustidan hukmronligi);
- 3) muloqot (dialog) - tabiat va insonning uygʻun barkamolligi.

Tabiat - odamning paydo boʻlgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman, bu - dunyo, olam, koinot; mikro-makro-megadunyolar; jonsiz va jonli borliq. Tor maʼnoda - tabiat fanlari oʻrganadigan obʻekt. Tabiat odamga, jamiyatga bogʻliq boʻlmagan qonuniyatga boʻysunadi. Odam tabiatning bir qismi. Odam tabiat qonunlarini oʻzgartira olmaydi, faqat bu qonunlardan foydalanib, tabiat elementlarini, qisimlarini oʻzlashtirishi mumkin. Tabiat - keng maʼnoda butun borliq, xilma-xil shakl va koʻrinishdagi olam, materiya, koinot tushunchalarini ham qamrab oladi. Tor maʼnoda - fan, asosan, tabiiyot fanlari oʻrganadigan obʻekt, turli tabiiyot fanlari tabiatni har tomondan oʻrganadi va oʻz tadqiqot natijalarini universal shaklda, konkret qonunlarda ifodalaydi. Tabiatning umumiy tushunchalari falsafa va fan metodologiyasi doirasida ishlab chiqilib, tabiiy fanlar yutuqlariga tayangan xolda tabiatning asosiy xarakteristikasini ochib beradi. Tabiiyot fanlarining rivojlanishi tabiat haqidagi tasavvurlarni boyitib boradi.

Demak, tabiiyot - tabiat haqidagi fanlar sistemasi, tabiiy fanlar majmui. Mavzui - tabiatdagi materiyaning turli harakat shakllari, oʻzaro aloqolari, ichki strukturasi va genezisidan iborat.

Tabiat tushunchasi insoniyat jamiyati yashashi tabiiy sharoitlarining majmui sifatida ham qaraladi. Inson yashashi uchun mehnat qiladi, mehnat (masalan, dehqonchilik, qurilish, sanoat), miya faoliyati va boshqalar esa tabiatning baʼzi jihatlarini oʻzgartiradi, oʻsha tabiat qonunlari doirasidan chiqqan holda. Odam tomonidan, yaʼni ijtimoiy mehnat jarayonida yaratiladigan moddiy boyliklar shartli ravishda “ikkinchi tabiat” deyiladi. Masalan, vodoroddan urangacha boʻlgan 92 ta kimyoviy element tabiiydir, undan keyingi kashf etilganlari sunʼiydir. Barcha sunʼiy sintetik kimyoviy birikmalar, odam yaratayotgan atom va yadro energiyalari “ikkinchi tabiat”ga kiradi.

Odamning tabiatga munosabati tarixda oʻzgarib va rivojlanib bordi. Antik

falsafada tabiatga stixiyali kuchlar (Demokrit), ideal dunyoning in'ikosi (Platon), uyg'un jarayon (Pifagor), mukammallik (Aristotel) deb qaralgan. Diniy ta'limotlarda tabiat ruhiy ibtidoaning moddiy gavdalanishi deb hisoblangan va Xudo tabiatdan yuqori turadi, deb tushunilgan. Ovrupoda Uyg'onish davrida tabiatga hamma tabiiy uyg'unlik va mukammallikning yuzaga chiqishi sifatida qaraldi. YAngi davrda tabiatga bo'lgan munosabat tabiatning ilmiy o'rganish ob'ektiga aylanishida katta rol o'ynadi.

Tabiat ob'ekti fazo va vaqtda mavjud modda, materiyadir. Ular cheksiz ma'lum narsalarning (elementar zarralar, antizarralar, qum, tosh, tuproq suv, havo, jonli va jonsiz mavjudot, planetalar, yulduzlar, galaktikalar va boshqa samoviy jismlar, fizik maydonlar) majmuidan iboratdir. Bir vaqtlar (fanning so'nggi ma'lumotlari bo'yicha bundan 20 milliard yil avval) bu jismlar boshqa ko'rinishda bo'lgan. Bo'lajak milliard yillarda u yana o'zgarib boradi. Tabiat odamning, jamiyatning vatani. Odamning hayoti tabiatning, biosferaning uyg'un sharoitiga bog'liq. Bu tushunchani birinchi bo'lib 1875 yilda avstriyalik geolog olim Eduard Zyuss kiritgan. Noosfera-esa aql sferasi, doirasi. Bu tushunchani 1927 yilda fransuz olimi E.Lerua istemolga kiritgan. Bu sharoit salbiy tomonga o'zgartirilsa, odamning normal yashashiga putur etkaziladi, ekologik muammolar paydo bo'ladi. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish - biosfera, noosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish lozim. Insonning tabiatga bunday munosabatda bo'lishida fan asosiy omil bo'lib kelmoqda. Er va koinotda insonning faoliyati faollashmoqda. Koinotning uzoq-uzoq joylari (masalan, metagallaktikalari, pulsarlari, kvazarlari) yuz berayotgan hodisalarni kengroq va chuqurroq bilish tabiat haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi.

Inson to'g'risidagi ilk tasavvurlar falsafa maydoniga kelishidan ancha avval ham bo'lgan. Bular tabiat va inson nisbati to'g'risidagi ertaklarda, turli asotirlarda (miflarda) ifodalangan eng sodda fikrlar edi. Hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan erda hayot 100 mln yil avval kelib chiqqan. Maymunsimon mavjudotlardan insonning kelib chiqishi bir necha million yil avval boshlangan.

Tabiatni asrash — har birimizning mas'uliyatimizdir.

Tabiatni asrash — bu tabiiy muhitning muvozanatini saqlash, undagi biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan harakatlar majmuidir. Bu faoliyat insonlarning tabiatga nisbatan mas'uliyatini aks ettiradi va uning kelajagini ta'minlashga xizmat qiladi.



Tabiatni asrash — har birimizning mas’uliyatimizdir. Uni muhofaza qilish orqali nafaqat o‘zimizning, balki kelajak avlodlarning ham sog‘lom va baxtli hayotini ta’minlaymiz. Tabiat bizning uyimiz va hayotimiz manbaidir. Uni asrab-avaylash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish insoniy burchimizdir.

Tabiatni asrash qadriyat sifatida:



Sog‘lom hayotning asosi: Toza havo, sof suv va sog‘lom oziq-ovqat inson salomatligi uchun zarurdir. Tabiatni asrash orqali sog‘lom hayot ta’minlanadi.

Biologik xilma-xillikni saqlash: Flora va fauna turlari yer yuzidagi hayotning muvozanatini saqlaydi. Ularni muhofaza qilish ekotizimning barqarorligi uchun muhim.

Kelajak avlodlar: Tabiatni himoya qilish orqali kelajak avlodlarga sog‘lom va boy tabiatni qoldiriladi.

Iqlim o‘zgarishlarini kamaytirish: Tabiatni asrash iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’sirlarini kamaytirishga yordam beradi.

Iqtisodiy ahamiyat: Tabiiy resurslar ko‘plab iqtisodiy faoliyatlarning asosidir. Ularni oqilona foydalanish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Tabiatni asrashga oid hikmatli so‘zlar va maqollar

“Tabiat — bizning uyimiz, uni asrash — burchimiz.”

“Daraxt ekish — kelajakka qilingan sarmoyadir.”

“Tabiatni asragan — o‘zini asragan.”

“Suvning qadri quruqchilikda bilinar.”

“Bir daraxt kessang, o‘nta ekishni unutma.”

“Toza havo — sog‘lomlik kaliti.”

“Tabiatni asrash — farzandlarimizni asrash demakdir.”

“Ko‘p emas, oqilona foydalanish muhim.”

“Tabiatga mehr ko‘rsatsang, u senga baraka beradi.”



Har yili 5 iyunda nishonlanadigan Butunjahon atrof-muhitni himoya qilish kuni BMT ning ekologik harakatni va bizning sayyoramizni himoya qilish zuratini tashviqot qiluvchi yirik tadbiri hisoblanadi. Birinchi marta nishonlangan 1974 yildan buyon tadbir jamiyatga atrof-muhit holati to'g'risida axborot berish uchun global platformaga aylandi.

Insonlarni doimiy o'sib borayotgan talablari tabiatni o'z chegaralaridan tashqariga chiqarib yubordi. Okeanlar va o'rmonlar tufayli 86 million insonlar ish bilan ta'minlanadi. To'rt milliard insonlar faqat tabiiy dorilarga tayanadi

BMT o'n yilligi vazifalari – bu iqlim inqiroziga qarshi kurashish, millionlab turlarning yo'q bo'lib ketishining oldini olish va oziq-ovqat xavfsizligi, suv ta'minoti va turmush sharoitlarini yaxshilash uchun buzilgan va vayron qilingan ekotizimlarni katta darajada tiklashdir.

O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazining Tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi boshqarmasi havo, er usti suvlari va tuproq ifloslanishi ustidan kuzatuvlar olib boradi. Kuzatuvlar Respublikaning barcha hududlarida joylashgan O'zgidrometning tarmoq bo'linmalari tomonidan olib boriladi.

Butunjahon atrof-muhit kuni xalqaro miqyosda nishonlanadigan ekologik sanalar orasida mazmuni, mohiyatiga ko'ra o'zgacha kasb etadi. Mazkur sananing xalq orasida ekologlar bayrami, deya yuritilishining o'ziyoq uning ekologik taqvimdagi bosh bayram, barcha eko sanalarning asosiysi, muqaddimasi ekanligini isbotlaydi.

Mazkur sana BMT Bosh Assambleyasining 1972-yil 15-dekabrda o'tkazilgan 27-sessiyasida ta'sis etilgan. Anjumanda shuningdek, yangi tashkiliy tuzilma —Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha BMT Dasturi — YUNEPga asos solingan. Shundan beri YUNEP rahbarligida har yili butun jahonda atrof-muhit kuni nishonlanadi.

Ushbu tadbir uchun nega aynan 5-iyun sanasi tanlangan, degan savol tug'iladi. Javob oddiy: aynan 5-iyunda Shvetsiya poytaxti Stokgolmda BMTning Atrof-muhit masalalariga bag'ishlangan konfrensiyasi o'z ishini boshlagan edi.

Stokgolm konfrensiyasi yakunlari yuzasidan qabul qilingan rezolyutsiyaga muvofiq ta'sis etilgan ekologik sana Yer yuzida istiqomat qiluvchi barcha insonlarni tabiat muhofazasi bilan bog'liq faoliyatga jalb etish, keng jamoatchilik ongi-tafakkurida tabiiy resurslarni asrash, ulardan oqilona foydalanish orqali tabiiy boyliklarni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish mas'uliyatini anglatishga qaratilgan.

Butunjahon atrof-muhit kuni mazmun-mohiyatiga ko'ra, insoniyat oldida turgan keng ko'lamli va chuqur ildiz otishga ulgurgan muammolarga yechim izlashga yo'naltirilgan sana. Atrof-muhit kuni nafaqat ekologlarning kasb bayrami, balki atrof-muhit muammolari xaqida yana bir karra uylash, mulohaza yuritish fursati hamdir.

Bundan tashqari, BMT doirasida har yili suvni, havoni va boshqa tabiat resurslarini muhofaza qilish kunlari o'tkaziladi. Bu kabi sanalar munosabati bilan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ko'plab tadbirlar amalga oshiriladi. Butunjahon atrof-muhit kunida ham dunyo bo'ylab turli tadbirlar amalga oshiriladi, bu esa insoniyatning ekologiya muammolarga befarq emasligidan, tabiat xaqida qayg'urayotganligidan darak beradi.

Xalqaro Atrof-muhitni muhofaza qilish kunini nishonlash doirasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti butun jahon miqyosida dolzarb bo'lgan ekologik muammolar to'g'risida xalqaro jamoatchilikni xabardor etib, shu muammolarni yechishga dunyo xalqlarini chorlaydi. Yillar osha mazkur sana 100 dan ortiq mamlakatda nishonlanib, hozirda ekologik muammolarni yechishga yordam beruvchi muhim bir zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ushbu kunda barcha xalqlar birlashib, atrof-muhitni muhofaza qilishga, ona yerimizni asrab qolishga o'zining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniga ega bo'ladilar.

Tabiat bizning umumiy
uyimiz.



Xulosa

Tabiat bizning do'stimiz, u bizga hayot bag'ishlaydi, go'zallik va osoyishtalik hadya etadi. Ammo bu do'stlikni asrash uchun tabiatni sevish, unga mehr va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish zarur. Tabiatni saqlash nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim vazifadir. Shunday ekan, keling, tabiatga hurmat bilan qaraylik va uni asrashga o'z hissamizni qo'shaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ma`lumotlar internet manbalaridan olindi.

Mundarija:

1. «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish dasturi qabul qilindi.
2. Tabiat-bu hayot
3. Tabiatning hayotimizdagi ahamiyati.
4. Tabiatning bizga bergan boyliklari.
5. Tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat
6. Tabiatning go‘zalligi va uni saqlash
7. Tabiatni asrash — har birimizning mas’uliyatimizdir.
8. Tabiatni asrash qadriyat sifatida:
9. Tabiatni asrashga oid hikmatli so‘zlar va maqollar
10. Xulosa
11. Foydalanilgan adabiyotlar:
12. Mundarija